

MASOFAVIY TA'LIM VA UNDAN FOYDALANISH

Umarov Bekzod Azizovich*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchi*ubaumarov@mail.ru**Mirzarahimova Roziyaxon Ibrohimjon qizi***Farg'ona davlat universiteti talabasi*roziyaxon31@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada masofaviy ta'lim texnologiyalarida o'qituvchi va talabaning munosabati va o'zlashtirishni aniqlash usullari keltirilib o'tilgan. Bundan tashqari masofaviy o'qitishning hozirgi holati va muammolari, masofaviy kurslarni yaratishning kontseptual asoslari ko'rib chiqilgan. Mustaqillikka erishilgandan keyin barcha sohalaridagi kabi ta'lim tizimida ham jiddiy islohatlar amalga oshirildi, ta'limning sifatini yaxshilashga kirishildi. Shu boisdan bugungi kunda talabalarga sifatli ta'lim berishni tashkil qilishda ilmiy-texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo'llanmalar tashkil etish va internet manbalaridan hamda masofadan o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda. Aynan shu maqsadda axborot texnologiyalaridan foydalanish, mutaxassislarning umumiy ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligining sifatini oshirish uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, elektron darslik, kompyuterlar, internet texnologiyalari, elektron pochta, videoma'ruzalar, audio va video konferentsiyalar.

Annotation. In this article, methods of determining the teacher's and student's attitude and mastery in distance education technologies are presented. In addition, the current state and problems of distance learning, the conceptual foundations of creating distance courses are considered. After independence, serious reforms were carried out in the education system, as in all areas, and efforts were made to improve the quality of education. Therefore, today, in organizing quality education for students, it remains a requirement of the time to widely use modern information technologies, which are the product of scientific and technical progress, and the services of its material base - computers, to create electronic textbooks and manuals, and to use Internet resources and software tools for distance learning. For this very purpose, the use of information technologies, the introduction of information technologies that meet global standards into the educational process, and the improvement of the general knowledge and professional training of specialists are also of great importance.

Keywords: Information technologies, electronic textbook, computers, Internet technologies, e-mail, video lectures, audio and video conferences.

Аннотация. В данной статье представлены методы определения отношения и владения преподавателем и учеником технологиями дистанционного образования. Кроме того, были рассмотрены текущая ситуация и проблемы дистанционного образования, концептуальные основы создания дистанционных курсов. После обретения независимости в системе образования, как и во всех сферах, были проведены серьезные реформы, улучшено качество образования. Поэтому сегодня в организации обеспечения качественного образования обучающихся широко используются современные информационные технологии, являющиеся продуктом научно-технического развития, и его материальной основой для организации электронных учебников и учебных пособий, использования ресурсов Интернета и дистанционного обучения. обучающее программное обеспечение остается требованием времени. Именно для этого важно использовать информационные технологии, повышать качество общих знаний и профессиональной подготовки специалистов, применять в образовательном процессе информационные технологии, соответствующие мировым стандартам.

Ключевые слова: Информационные технологии, электронный учебник, компьютеры, Интернет-технологии, электронная почта, видеолекции, аудио- и видеоконференции.

Masofaviy ta’lim – masofadan turib o‘quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o‘qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta’lim oluvchilarga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi ta’lim majmuidir. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanish holati birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, ya’ni ta’lim sohasining rivojlanishiga bog‘liq. Ta’lim mazmuni va sifat masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta’limni axborotlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llari qaralmoqda, ta’limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etishga alohida e’tibor qaratilgan. Texnologiyaning rivojlanishi bilan texnik vositalardan foydalanib o‘qitish uchun birgina kompyuterning mavjudligi kifoya bo‘lib qoldi. Avvallari televizor, videomagnitofon, kinoproektor, diaproektor va boshqalar bajargan funktsiyalarni kompyuter muvaffaqiyat bilan o‘z zimmasiga oldi. Qolaversa, axborotni uzatish, saqlash, tasvirlash sifati sezilarli darajada ortdi. Hozirgi kunga kelib, kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi, kelajakda esa u har bir insonga qayerda, qaysi uchastkada ishlamasin zaruratga aylanadi. Demak, kompyuter ishi, kompyuterdan foydalanishga o‘rgatish eng yaqin vaqt ichida umumiy ishga aylanishi shubhasiz. Shu munosabat bilan barcha o‘quv muassasalarida, oliy o‘quv yurtlarida o‘quv tizimini yangidan isloh qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqish va ularni amaliyotga keng jalb qilish, rivojlangan mamlakatlar o‘quv tizimidagi yangiliklar va yutuqlarni o‘rganish va ularni o‘zimizda tadbiq etish maqsadga muvofiqdir. Masofaviy o‘qitish — sirtqi ta’limning o‘z rivojlanish yo‘lidagi yangi

kommunikatsion va informatsion texnologiyalarga tayangan, hamma formalari qonunlashtirilgan o‘qitishni amalga oshirishdir. Shuning uchun «Masofaviy o‘qitish» formasi «XXI asr ta‘limi deb xisoblanmoqda. Keyingi paytlarda masofaviy o‘qitishning ijobiyligi isbotlangan. Bu borada birinchilik uchun AQSHning NTU Milliy Texnologiya Universiteti va OU — Buyuk Britaniyaning ochiq Universitetlari kurashmoqda. Aslida hozirgi paytda masofaviy o‘qitish va o‘qitish muassasalari soni ularning klassifikatsiyasini keltirish uchun yetarlidir. Taxlillar shuni ko‘rsatadiki, ular davlat va nodavlat guruxlariga bo‘linib, o‘zlarining o‘qitish xizmatini mamlakatlarning ta‘lim bozorlarida harakatga keltirmoqdalar va aksincha. Biroq, bunday ko‘rinishdagi o‘qitishlar ko‘pincha gumanitar yo‘nalishdagi o‘qitishlarni o‘z ichiga qamrab olmoqda. Shu munosabat bilan barcha o‘quv muassasalarida, oliy o‘quv yurtlarida o‘quv tizimini yangidan isloh qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqish va ularni amaliyotga keng jalb qilish, rivojlangan mamlakatlar o‘quv tizimidagi yangiliklar va yutuqlarni o‘rganish va ularni o‘zimizda tadbiq etish maqsadga muvofiqdir. Masofaviy o‘qitish — sirtqi ta‘limning o‘z rivojlanish yo‘lidagi yangi kommunikatsion va informatsion texnologiyalarga tayangan, hamma formalari qonunlashtirilgan o‘qitishni amalga oshirishdir. Shuning uchun «Masofaviy o‘qitish» formasi «XXI asr ta‘limi deb xisoblanmoqda. Keyingi paytlarda masofaviy o‘qitishning ijobiyligi isbotlangan. Bu borada birinchilik uchun AQSHning NTU Milliy Texnologiya Universiteti va OU — Buyuk Britaniyaning ochiq Universitetlari kurashmoqda. Aslida hozirgi paytda masofaviy o‘qitish va o‘qitish muassasalari soni ularning klassifikatsiyasini keltirish uchun yetarlidir. Taxlillar shuni ko‘rsatadiki, ular davlat va nodavlat guruxlariga bo‘linib, o‘zlarining o‘qitish xizmatini mamlakatlarning ta‘lim bozorlarida harakatga keltirmoqdalar va aksincha. Biroq, bunday ko‘rinishdagi o‘qitishlar ko‘pincha gumanitar yo‘nalishdagi o‘qitishlarni o‘z ichiga qamrab olmoqda. Masofaviy o‘qitish sistemasining korporativ sistemasi alohida sinf bo‘lib, tashkilotlar va ishlab chiqarish xodimlarining malakasini oshirishga va qayta tayyorlash uchun mo‘ljallangandir. Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Masofaviy o‘qitishni o‘qish jarayonida qo‘llash sabablari shundaki ta‘lim tizimida o‘quv jarayonini yangidan islox qilish, yangi informatsion texnologiyalarga asoslangan o‘qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugunning talabidir. Bunda masofaviy ta‘lim tizimini joriy qilish maqsadga muvofiqdir. 90 yillarning boshlarida Internetning keng ommalashishi, ayniqsa WWW (World Wide Web —Butun dunyo o‘rgimchaklari to‘ri) tizimining joriy etilishi ta‘lim tizimida yangi masofaviy ta‘lim tushunchasini olib keldi. Masofaviy o‘qitish — bu informatsion va kommunikatsion texnologiyalar — Elektron pochta, Internet, video konferentsiya, audio, video ma‘lumotlar va mul‘timedia o‘quv qo‘llanmalariga asoslangan uzoqdan turib o‘qitish, o‘rgatish usulidir. Masalan masofadan biror yangi mavzu yoki predmet bo‘yicha ma‘lumotlarni viloyatlardagi ixtiyoriy o‘quv yurtlariga uzatish mumkin. Agar joylarda bu sohada mutaxassis bo‘lmasa masofadan o‘qitish yagona usuldir. Masofaviy ta‘limda talabadan doimiy faoliyat — interaktiv o‘qitish talab etiladi. Bu esa mutaxassisning bilimi va qobiliyatini

sifat xarakteristikasini oshiradi. Masofaviy o‘qitishning texnologiya elementlari hatto yuz yillardan beri ko‘rib kelinadi. Bunga Rossiya tajribasidan misol qilib general A.M.Shanyavskiy nomidagi Moskva Xalq Universiteti, Naxotka shaxridagi Morexodnaya maktablarini olish mumkin. Bu yerda V. P. Chernov 1987 yili masofaviy o‘qitishni joriy etgan. Ma‘lumki dunyoda ilmiy izlanishlar bo‘yicha axborotlar doim o‘sib, ularni tahlil qilish jarayoni tobora murakkablashib bormoqda. Hozirgi zamon mutaxassisi qaysi sohada ishlamasin, uning oldida o‘zining sohasiga tegishli hodisa va voqealarni bilib turishi va bilim saviyasini doimiy ravishda oshirib borishini talab etmoqda. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta‘lim jarayoniga kirib kelishi an‘anaviy o‘qitish usullariga qo‘shimcha ravishda yangi o‘qitish shakli – masofaviy o‘qitish yaratilishiga omil bo‘ldi. Masofaviy ta‘limda talaba va o‘qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o‘zaro maxsus yaratilgan o‘quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo‘ladilar. Internet texnologiyasini qo‘llashga asoslangan masofaviy o‘qitish jahon axborot ta‘lim tarmog‘iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o‘zaro aloqa tamoyiliga ega bo‘lgan muhim bir turkum yangi funktsiyalarni bajaradi. Masofaviy o‘qitish barcha ta‘lim olish istagi bo‘lganlarga o‘z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o‘qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o‘quv-uslubiy materiallarni o‘zlashtiradi, nazoratdan o‘tadi, o‘qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertual o‘quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo‘ladi. Ma‘lum sabablarga ko‘ra, ta‘lim muassasalarining kunduzgi bo‘limlarida tahsil olish imkoniyati bo‘lmagan, masalan, sog‘ligi taqoza etmaydigan, mutaxassscligini o‘zgartirish niyati bo‘lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo‘lgan kishilar uchun masofaviy o‘qitish qulay o‘qitish shakli hisoblanadi. Masofaviy o‘qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya‘ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog‘liq. Masalan, an‘anaviy bosma usuliga asoslangan o‘qitish vositalari (o‘quv qo‘llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferentsiyalar ma‘lum vaqt orasida o‘zaro muloqotda bo‘lishga, elektron pochta to‘g‘ri va teskari aloqa o‘rnatishga, ya‘ni xabarlarini jo‘natish va qabul qilishga mo‘ljallangan. Oldindan yozilgan videoma‘ruzalar talabalarga ma‘ruzalarni tinglash va ko‘rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o‘zaro teskari aloqa orqali o‘qitish imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki -masofaviy o‘qitish bugungi kunda milliy o‘quv maskanlari uchun zarur, balki bugungi kundagi globalizatsiyalash jarayonida katta-katta odamga, ularga o‘zlariga mutaxassislar tayyorlashda, ularning qayta tayyorlashda, hisobot bilim darajalarini va ko‘nikmalarini yuqori darajada ushlab turishda muhim o‘rin tutadi. Masofaviy o‘qitishni qo‘llagan holda aholining umumiy bilim haqida va bu bilimning sifati tomonidan imkoni mavjud. Aholining barcha qatlamlarini bilim olishdagi ixtiyoriy

talablarini talab qilish mumkin bo'ladi. Bilimlarni o'z vaqtida keng aholiga tarqatish imkoni mavjud. Yagona ta'lim muhitini yaratib, unda barcha bilimlarni mujassamlashtirish imkoni mavjud.

Masofadan o'qitish usulida o'quvchi va o'qituvchi bir-biridan masofa bilan ajralgan bo'lsa ham doimiy muloqotda qoladi. Bu o'qitishni nazorat qilish tegishli usuli bo'ladigan elektron pochta va internet texnologiyalari asosida yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akhmedov, B. A., & Khasanova, S. K. (2020). Public education system methods of distance in education in development of employees. *Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 1(1), 252-256.

2. Ахмедов, Б. А. (2020). Математические модели оценки характеристик качества и надежности программного обеспечения. *EURASIAN EDUCATION SCIENCE AND INNOVATION JOURNAL*, 3(10), 97-100.

3. Гулбоев, Н. А., Дуйсенов, Н. Э., Ахмедов, Б. А., & Рахманова, Г. С. (2020). Модели систем управления электрическими сетями. *Молодой ученый*, 22(312), 105-107.

4. Мухамедов, Ф. И., & Ахмедов, Б. А. (2020). Инновацион "Klaster mobile" иловаси. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 140-145.

5. Ахмедов, Б. А. (2020). О развитии навыков интерактивных онлайн-курсов в дистанционных условиях современного общества (модель-программа для преподавателей образовательных учреждений). *Universum: технические науки*, 12 (81), 11-14.

6. Ахмедов, Б.А., Якубов, М. С., Карпова, О. В., Рахмонова, Г.С., & Хасанова, С. Х. (2020). Геймификация образовательного процесса кластерный подход. *INTERCONF*, 2 (38), 371-378.

7. Yusupov, M., Akhmedov, B. A., & Karpova, O. V. (2020). Numerical Simulation of Nonlinear Vibrations of Discrete Mass with Harmonic Force Perturbation. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 10 (4), 71-75.

8. Akhmedov, B. A., Xalmetova, M. X., Rahmonova, G. S., Khasanova, S. Kh. (2020). Cluster method for the development of creative thinking of students of higher educational institutions. *Экономика и социум*, 12(79).